

“RAVZAT US-SAFO” ASARINING YARATILISHI VA O‘RGANILISH TARIXI

Karimov Sherzod Shavkat o‘g‘li

Sirdaryo viloyati Xovos tumani 1-umumta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. XVI asrda yozib tugatilgan Mirxondning “Ravzat us-safo” asari nafaqat Markaziy Osiyo olimlari, balki dunyo hamjamiyati tomonidan hozirgi kungacha katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Asarning xolisona va tarixiy faktlarga asoslanib yozilganligi uning qiymatini yanayam oshishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur maqolada esa “Ravzat us-safo” asarining yozilish tarixi hamda uning o‘rganilish masalasi muhokama qilinadi. Asarning yozilgan davridagi siyosiy-ijtimoiy hayot, ilm-fanga bo‘lgan e’tibor, tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan imkoniyatlar ham e’tiborga olingan.

Kalit so‘zlar: “Ravzat us-safo”, miniatyura, naqqoshlik, Ixlosiya, sayyidlar, amir ul- muarrixin,

V – XV asrlar Movarounnahr va Xurosonning ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy - madaniy tarixida ulkan va zarhal bo‘yoqlar bilan bezaldi. Sababi shundan iborat ediki, bu hududning Amir Temur va uning avlodlari (Shohrux, Ulug‘bek, Abu Said va Sulton Husayn Boyqaro va boshqalar) tomonidan idora etilgani, ilm-fan va madaniyat sohasiga zalvorli hissa qo‘shganligi bilan belgilanadi. Bu davrda juda ko‘p olim- u fuzalolar, shoirlar va boshqa ilm- fan namoyandalari yetishib chiqqan va shuning bilan birgalikda ular o‘z asarlari orqali dunyoga tanilganlar. Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy, Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an - Narshaxiy, Abu Bakr Ahmad ibn al-Husayn al-Bayhaqiy, Abdul-malik ibn Abdulloh al-Juvayniy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy singari olim va mutafakkirlar yaratib qoldirgan durdona asarlar katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo va O‘rta Sharq mamlakatlarining XV–XVI asrlardagi ya’ni Amir Temur va temuriylar davridagi tarixni yoritishda manba xizmatini o‘taydigan talaygina asarlar fanga ma’lum. Hujjat to‘plamlarini hamda boshqa yodgorliklarni hisobga olmagan holda, faqat tarixiy asar sifatida yozilgan manbalar nomining o‘zini keltirganimizda ham katta bir ro‘yxat vujudga keladi. Masalan, Hofizi Abro‘ning Temur vorisi bo‘lmish Shohrux davrida yozilgan “Zubdat ut-tavorix Boysung‘uriy” nomli asari, Sharafuddin Ali Yazdiyning XV asr birinchi choragida va Nizomuddin Shomiyning XV asrning o‘rtalarida bir nom bilan yozilgan mashhur “Zafarnoma”lari, Fasih Havofiyning “Mujmali Fasihiy” asari, Abdurazzoq Samarqandiyning Husayn Boyqaro taxtiga o‘tirgan (1470) yili yozib tamomlangan “Matla’i sa’dayn va majmai bahrayn” degan kitobi shular jumlasidandir.

XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlarida Xurosonda ayniqsa, uning poytaxti Hirotda nafaqat tarix, balki boshqa fanlar ham, shuningdek, adabiyot, me’morchilik, tasviriy san’at (miniatyura va naqqoshlik), musiqiy ilm va xattotlik keng rivojlangan edi. Ushbu kasb egalarining olim sifatida

shakllanishida u davrning ma'rifat homiysi Mir Alisher Navoiy katta hissa qo'shdi. Xususan, Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarining tarixni yoritishda o'sha davr muarrixlariga xos ko'proq umumiy tarix, ya'ni Odam Atodan to muallif yashagan kunlargacha bo'lib o'tgan voqealar haqida bayon etilgan bir necha tarixiy asarlar yaratilgan edi. Ana shunday tarixchilardan biri Mirxond va bunday asar "Ravzat as - safo" dir. Mirxond o'z homiysi Alisher Navoiyga tegishli tarixni yoritishga alohida to'xtalib o'tadi va unga maxsus bo'limlar ajratadi. Masalan, "Ulug' va sohib tadbir Amir Alisher Navoiyning Sulton Ahmad Mirzo o'rdusidan jahongir xoqon Sulton Husayn Mirzo mulozamatiga kelishining bayonida mushkin raqam qalamning nuqtatirozligi va uning hol-ahvolini bayon etishda ko'rsatgan sahrpardozi", "Xoqoni Mansurning Amir Nizomuddin Alisherni amirlik mansabiga o'tkazgani bayoni", "Xoqoni Mansurning Amir Alisherni Astrobod ayolati bilan sarafroz etishi, ul adolat Amir Alisherning hukmiga binoan o'sha viloyatga jo'nab ketishi", "Xoja Afzaluddin Muhammadning hajga borgani va Amir Alisherning Astroboddan kelib shu viloyat hokimligidan ozod qilishni talab etgani haqida", "Amir Alisherning inisi Darvish Alining Balx viloyatida sarkashlik qilgani bayoni", "Ulug' Amir Alisherning haj niyati bilan muqaddas Mashhad shahriga borishga intilishi va ul hazratning jo'nashi haqida xoqoni Mansurning inoyatnoma yuborgani" va hokazo.

Asarning ilk muallifi Mir Muhammad ibn Sayid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al - Balxiy - Mirxond (1433 - 1498) o'rta asr tarix fanining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biridir. Mirxondning otasi Sayid Burhoniddin Xovandshoh ham zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lib, Temuriylar hukmronligi davrida Buxorodan Balxga kelib qolgan.

Ota-bobolari Buxorolik bo'lib, fiqh ilmida zamonasining yetuk olimlari sifatida mashhur bo'lgan. Ulardan Mahmud ibn Ahmad al- Mahbubiy (vafoti - tax. 1300) fiqh ilmida peshqadam olim bo'lganligi uchun "Toj ash - shari'a" ("Shariat toji") nomi bilan tanilgan va sharqning mashhur fiqh olimi Sayid Burxonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asariga "Viqoya ur - rivoyat fi masoil ul-Hidoya" ("Hidoya masalalarini himoya qiluvchi rivoyatlar") nomli sharh yozgan¹.

Ubaydulloh ibn Mas'ud al-Mahbubiy (vafoti - 1346) "Toj ash- shari'as-soniy" ("Ikkinchi shariat toji") nomi bilan tanilgan va "Sharh ul - viqoya", "An-nihoya muxtasar ul-viqoya" nomli mashhur kitoblar yozib qoldirgan. Mirxondning otasi Sayid Burxonuddin Xovandshoh ham o'z davrining bilimdon kishilaridan bo'lib, temuriylar hukmronligi davrida Balxga kelib qolgan va o'sha yerda vafot etgan. Otasi Markaziy Osiyo sayidlaridan edi. Otasi vafot etganda u juda yosh bo'lgan shu sababdan otasi vafotidan so'ng ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Mirxond 1433- yili Balxda tug'ilgan bo'lsa-da, umrining deyarli ko'p qismini Hirotda o'tkazdi. Yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan Mirxond yoshligida tarix faniga qiziqib qoladi. Do'stlari uni shu mavzuda asar yozishga undashdi. Shu sababli, unga homiy kerak edi. Do'stlaridan biri orqali Hirotda Alisher Navoiy

¹ Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 1999. – B. 245.

bilan uchrashdi. Shu bilan birga, Alisher Navoiyining ilmiy majlisida, donishmand vazir, Abdurahmon Chalabiy, Shayx Ahmad Suhayli, Xoja Abdulla Marvarid, Xoja Efdaluddin Muhammad, Mavlono Xoja Asafiy va Davlatshoh Samarqandiy kabi o'sha asrning taniqli shaxslar ishtirok etishga muvaffaq bo'ladi. Kengashning buyuk olimlari bilan yaqin munosabatlar Mirxondning tadqiqotga bo'lgan ishtiyoqini butunlay oshirdi. Uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida nabirasi Xondamir "Xulosat ul- axbor" kitobida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Uning yozishicha, hazrat Navoiy Mirxondga juda katta moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatgan, o'zining "Ixlosiya" xonaqosidan bir hujra ajratib bergan va undan bir tarixiy asar yozib berishni iltimos qilgan. Bu jarayonda Navoiy Mirxondni kerakli kitoblar bilan ta'minlagan. Ixlosiya madrasasi va xonaqohi 888/1483- yildan so'ng qurilganligini hisobga olganda Mirxond bu sanadan so'ng bu yerga kelgan va asarini yozishni boshlagan. Bu vaqtda taxminan, 50 yoshlarda bo'lgan. Mirxond bu asarni qisqa vaqt ichida yozib tamomlagan. 1497- yilning bahorida og'ir kasallikka chalinadi. Kasalligi haqida asarning 6 jildida ko'krak qafasida sanchiqlar mavjudligi, og'ir kasallikka chalinganligi, asarni yotoqda tugatishga majbur bo'lganligini yozadi. 1498 - yilda olamdan o'tgan va Hirotda dafn etilgan. Demak, umrining 15 yili davomida "Ravzat as - safo" asarini yozgan. Asarni uning nabirasi Xondamir davom ettirgan. Xondamir "Xulosat ul - axbor" kitobida bobosi haqida quyidagilarni yozadi: "Padarpanoh janob amir Xovand Muhammad yigitlik chog'larida turli ilmlarni tahsil etish va nafis fazilatlarni kamoliga yetkazish yo'lida tirishqoqlik va zo'r mehnat qildi... Qisqa vaqt ichida bilimdonliqda zamon fozillarining peshqadami bo'lib oldi. U (ko'proq) tarix ilmini kasb qildi va jahon ahvolini hamda osor - atiqalarini tahqiq qilishga kirishdi. Olijanob xotirani tez fursat ichida bu fanni egallashdan forig' qildi, ammo fe'l-u atvori maishat ahli bilan qo'shilishga yo'l bermadi, zavqu shavqqa berilmadi... Dars berish va amru ma'rifatga ishtiyoq uning ravshan xotirida aslo ko'rinmadi. Ammo (bu hol) ... orzu va omonlikning qiblagohi, ya'ni olijanob Sulton (Husayn) hazratlari yaqin do'sti (Alisher Navoiy)ning huzurlariga borgunicha va uning har turli navozish, marhamat, iltifot hamda muruvvatlarini topmagunlaricha davom etdi"².

Mirxond o'z davrining eng mashhur tarixchilaridan biri bo'lgani shubhasiz. Uning tarixni yoritishi va ilmga bo'lgan munosabatini Alisher Navoiy maqtovg'a sazovor deb bilgan. Alisher Navoiy o'zining "Majolis un- nafa'is" asarida ham Mirxondga alohida to'xtalib o'tgan. Xususan, Navoiy quyidagicha yozadi: "Sayid Xovandshoh o'g'lidurkim, Balx (qubbat ul - islomiy) ning mutaayin donishmandi va buzurgi erdi va o'zi yigitlikda ulum takmili qildi va holo bovujudi kibarisin va ulvi nasab va kasrati hasabki barcha mujibi ujb anoniyatdurlar, ul miqdor betaayyun va foni mashrab va xush axloq kishidurkim, andin o'tmas. Insho va tarix fanida ibnazirdur. Bu faqir iltimos bila avvali ofarinishdin bu kungacha tarixi jome'i biturkim, nisfig'a yetibdur. Inshoolloh, tugaturiga muvaffaq bo'lg'aykim, tavorix arosida andin mufidroq tarix bo'lmag'usidur. Vus'ati mashrab bila adami

² Khomushova F. Giyasüddin Handmir'in hayati, eserleri ve tarihçiliği. – Bursa.: Yüksek lisans tezi, 2020. – B. 55.

taayyun jihatidan gohi biror ayoq icharda daf'i malolat yo kasrati nishot uchun, nard o'ynarg'a ham tanazzul qilurlar. Va mashliq va mabhutluq olamin ham ko'p ta'rif qilurlar".

Yuqoridagi Mir Alisher Navoiyning bergan ta'rifiga binoan Mirxond Balx shahrining katta va ko'zga ko'ringan olimlaridan biri bo'lgani, yoshlik chog'laridan ilmning turli sohalarini puxta o'rgangani hamda xush axloqlik borasida unga teng keladigan kishi yo'qligi haqida aytib o'tmoqda. Alisher Navoiy Mirxondga tarixni jamlagan katta asar yozib berishini iltimos qilgani ma'lum. Navoiy "Majolis un- nafaos" asarini yozgan vaqtida Mirxond "Ravzat as - safo"ning yarmini yozib tugatgani haqida aytib o'tgan. "Majolis un- nafaos" da Alisher Navoiy katta ishonch bilan Mirxond o'z asarini tugatsa tarixiy asarlar orasida bundan to'liqroq va mukammalroq asar bo'lmasligini aytib o'tgan. Hali yozib tugatilmagan asar uchun Alisher Navoiydek buyuk mutafakkir bunday baho berishi Mirxondning tarixchi sifatida olib borgan ishlari beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Yana ta'kidlab o'tadiki, Mirxond har zamonda charchog'ini daf qilish va hordiq chiqarish uchun nard o'ynab turgan. Alisher Navoiy Mirxondga yanada yuksak baho berish uchun Amir Xisrav Dehlaviyning baytidan foydalangan:

"Amir Xusravning "Dar'yo'abreri" tatabbusida bu bayti xub voqea bo'lub turkim:

Harki dast az obi hayvon shust, xizri vaqt o'st,

*V- on ki az zulmoti nafs omad burun Iskandar ast"*³.

Tarixchi Xondamir Mirxondning tarjimayi holi to'g'risida shunday deydi: "Ushbu so'zlarni yozuvchi o'zini ul hazratga nisbatan farzanddek tutadi va surbetlik tili bilan o'zini ul zotning shogirdlari qatoxirida ko'radi.

Zarrani quyosh bilan qiyoslab bo'larmi,

Gavhar shodasidan dona tusharmi.

Agar obro'yim bo'lishini istasam,

Men uning shogirdiman, deb aytaman.

Shogirdmasman, notavon bir g'ulomman,

Uning xirmoni atrofidan boshoq terguvchiman.

Maxdum otamiz hayotlarining oxirgi davrlarida uzlat va go'shanishinlikka mayl bildirdilar"⁴.

"Ravzat as - safo" asarining 7-jildi Mirxondning nabirasi tarixchi Xondamir tomonidan tugatilganligi bois tadqiqotning ushbu qismida Xondamir hayotiga to'xtalishni afzal bildik. Xondamir G'iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomuddin ibn Xoja Jaloliddin Muhammad ibn Burhoniddin Muhammad Sheroziy (1473 - 1476, Hirot - 1534, Mandu; Dehlida dafn etilgan) - tarixchi.

Ona tomondan Mirxondning nabirasi va shogirdi. Otasi temuriylardan Sulton Maxmud Mirzoning vaziri bo'lgan. 10 yoshida Navoiyning kutubxonasida kutubxonachi, 1498 - yil mudir, 1503-yildan Balxda Badiuzzamon Mirzo saroyida

³ Alisher Navoiy. Majolis un - nafaos. - T.: Fan, 1997. - B. 115.

⁴ Xondamir. Makorim ul - axloq. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - B. 168.

xizmat qilgan. 1507–1510 - yillarda Shimoliy Afgʻonistonda (Basht qishlogʻida) adabiy ijod bilan shugʻullangan. 1510 - yil Xondamir Hirotga qaytib kelgan. 1528 - yil Xondamir Hindistonga, Boburiylar poytaxti Agraga, yaʼni Bobur huzuriga borgan va 1529 - yil Boburning Ibngaliya va Gang daryosi sohili tomon qilgan yurishida qatnashgan. Bobur vafotidan soʻng Xondamir uning vorisi Humoyun bilan harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Ayni vaqtda u “Humoyunnoma” asarini yozadi. Bu xizmati evaziga unga “Amir ul- muarrixin” unvoni berilgan. Humoyun bilan harbiy yurishdan qaytib kelayotganda vafot etgan. Vasiyatiga binoan, Dehlidagi mashhur qabristonga, shoir Xusrav Dehlaviy (1253- 1325) yoniga dafn etilgan. Xondamir 13 ta asar yozgan, bizgacha 8 tasi yetib kelgan; “Maʼosir ul - muluk” (“Ham asr podshohlarning tarixi”)(1498-1499); Alisher Navoiyga bagʻishlangan: “Xulosat ul - axbor fi bayon ul - ahvol ul - axyor” (“Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi”) (1498-1500) va “Makorim ul - axloq” (“Oliyjanob xulqlar”) (1501); “Dastur ul - vuzaro” (“Vazirlar uchun qoʻllanma”) (1500-1501) ; “Nomai nomi” (“Atoqli nomalar”) yoki “Inshoi Gʻiyosiddin”, “Inshoi Gʻiyosiy” (1522- 1523); Mirxondning “Ravzat as - safo” asariga Xondamir tomonidan qoʻshilgan ilova - 7 jild va “Geografik qoʻshimcha” (1522-1523); “Habib us - siyar fi axbor afrod ul - bashar” (“Inson zoti xabarlari va doʻstning tarjimai holi”) (1520-1524); “Humoyunnoma” (1534).

Xondamir asli oʻzi tarixchi boʻlsa-da, oʻz davrida tabiiy - fanlarga ham katta hissa qoʻshgan. Uning asarlarini oʻrganish hozirgi kunda ham toʻxtab qolgani yoʻq. Masalan, uning “Makorim ul- axloq” kitobida uning biografiyasi va hayoti, ijodi, Movarounnahr, Xurosonning tarixi, madaniyati va u yerdagi ilm-fan ravnaqi batafsil taʼkidlab oʻtilgan. Uning barcha sakkiz asarida shu kabilar joy olgan. Xondamir oʻzining asarlarida juda koʻplab tarixchilarning (Mavlono Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiy, Mavlono Muʼiniddin Muhammad Isfizoriy, Amir Muhammad Hovand (uning bobosi ota tomondan) va boshqalar) asarlari haqida soʻz yuritilgan. Xondamirning asarlarida astronomiya, fizika, tibbiyot haqidagi bilimlarning rivojlanishi, bu sohada qalam tebratgan olimlar, ularning hayoti haqida mufassal toʻxtalib oʻtiladi⁵.

Sharq xalqlari tarixini oʻrganish, tadqiq etishda Tabariy, Narshaxiy, Bayhaqiy, Juvayniy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Nizomuddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy singari olim va mutafakkirlar yaratib qoldirgan durdonalar katta ahamiyat kasb etadi. Ana shunday bebaho tarixiy asarlardan biri “Ravzat as - safo” asaridir.

⁵ Юсупова Д., Творческое наследие Хондамира как источник по истории культуры Центральной Азии XV - XVI вв. – Т.: 2001. – 324 б.